

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo’nalishi 301-guruh talabasi
Karimova Shoxsanam Baxtiyor qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19454250>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda o’qituvchilarning dars jarayonlarida interaktiv metodlar, sun’iy intellect vositalari, raqamli resurslar, turli ilova va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali, ta’lim jarayonini sifatli va samarali tashkil etish kompetensiyasining shakllanganligi qay darajada muhim ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’z: kompetensiya, sun’iy intellect, raqamli texnologiya, axborot savodxonlik, Xalqaro baholash dasturlari, Hemis, E-maktab, kundalik.com, summativ baholash, BSB, CHSB, demo test.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность компетентности учителей в качественной и эффективной организации образовательного процесса путем интеграции интерактивных методов, инструментов искусственного интеллекта, цифровых ресурсов, различных приложений и современных технологий в современные методы обучения.

Ключевые слова: компетентность, искусственный интеллект, цифровые технологии, информационная грамотность, Международные программы оценки, Hemis, E-maktab, kundalini.com, итоговая оценка, BSB, CHSB, демонстрационный тест.

Abstract: This article discusses the importance of teachers' competence in organizing the educational process qualitatively and effectively by integrating interactive methods, artificial intelligence tools, digital resources, various applications and modern technologies in their teaching processes today.

Keywords: competence, artificial intelligence, digital technology, information literacy, International Assessment Programs, Hemis, E-maktab, kundalini.com, summative assessment, BSB, CHSB, demo test.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim va sog’liqni saqlash kabi sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlat siyosati darajasiga ko’tarilmoqda. Ushbu amalga oshirilayotga islohotlar va shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv muhiti bugungi kunda ta’lim sohasining har bir vakilidan o’zida raqamli texnologiyalar asosidagi tayanch kompetensiyalarni shakllangan bo’lishini talab etmoqda.

ASOSIY QISM

Raqamli texnologiyalar asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish — bu ta’lim jarayoniga interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslarning barchasidan samarali foydalangan holda o’quvchilarning axborot savodxonligi, erkin va faol muloqot, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini rivojlantirish metodikasi bo’lib hisoblanadi.

2019-yilda ko’plab davlatlarda tarqalgan “covid-19” pandemiyasi afsuski O’zbekistonni ham chetlab o’tmadi. Bu davrda har bir fuqaro uyda qolishga majbur bo’lganligi ko’plab masalarni onlayn holda xal etish majburiyatini tug’dirdi. Tabiiyki ta’lim jarayoni ham

masofaviy holatda amalga oshirildi. Bu esa o’z navbatida aholining virtual savodxonligini yangi bosqichga olib chiqdi.

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyevning farmoni asosida “Raqamli O`zbekiston-2030” strategiyasining joriy etilishi ta’lim jarayoniga ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratilishiga olib keldi. Oliy ta’lim tizimida Hemis tizimining ishga tushirilishi, Umumiy o`rta ta’lim maktablarida E-maktab tizimi, Kundalik com platformasining ishga tushirilishi, umumiy o`rta ta’lim maktablarning bosqichma-bosqich holda summativ baholash dasturiga o`tilishi, BSB,CHSB va Demo testlarining joriy etilishi,dars mavzulari va uy vazifalarini kundalik-com platformasiga onlayn holda joylanib borilishi, barcha ta’lim tashkilotlarida o`z mehnat faoliyatini olib borayotgan ustozlardan raqamli savodxonlikni mukammal darajada shakllangan bo`lishini talab qilmoqda. Qolaversa bugungi kunning yosh avlodi hayotini medi-axborot vositalari zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish jarayonisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Ayni shunday davrda o`quvchilarni darsga qiziqishini orttirish, dars davomida ularni diqqatini jalb qilib mavzuni atroflicha tushuntirish uchun har bir pedagog dars jarayonida raqamli texnologiyalar, multimedia vositalaridan foydalanishi muhim jihatlardan biri bo`lib hisoblanadi. Har sohada rivojlanib borayotgan O`zbekiston ko`plab xalqaro baholash dasturlarida ishtirok eta boshladi. Jumladan PIZA, PIRLS, TIMSS kabi tadqiqotlarda jahon bilan tenglasha oladigan o`quvchilarni yetishtirish uchun ham raqamli texnologiyalardan erkin foydalanish juda muhimdir. Ya`ni sun`iy intellect va raqamli texnologiya vositalari hhayotimizning muhim qismiga aylanib ulgurdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har bir pedagog o`zida shakllantirishi zarur bo`lgan kasbiy kompetentliklar orasida raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olish ko`nikmasi ham yuqori darajada shakllangan bo`lishi lozim. Pedagogning kasbiy kompetensiyalari orasida pedagogic mahorat, psixologik chidamlilik, bilim, ko`nikma, malaka, vaziyatni tahlil qila olish kabi ko`nikmalar qay darajada muhim bo`lsa raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda kasbiy faoliyatini olib borish ham shunchalar muhimdir. XX asrda dars jarayonlarida doska va bor bilan dars o`tilgan va ushbu o`tilgan dars o`quvchini qoniqtirgan. Bugungi kun o`qituvchisi esa axborot ummonida suzib, sun`iy intellect bilan vaqt o`tkazib, zamonaviy, raqamli texnika va texnologiyalardan foydalanib ulg`aymoqda. Ularni turli axborotlarni tahlil qila olishi va o`ziga kerakli axborotlarni qabul qilishlari uchun immunitetni shakllanishida, sun`iy intellect va texnologiyalardan oqilona foydalanishga o`rgatish uchun ham o`qituvchining o`zi ushbu jihatlarda o`quvchidan sezilarli darajada ko`proq bilimga ega bo`lmog`i zarur. Bu jihat ayni davrda pedagogic faoliyatni to`ldirib boruvchi asosiy va muhim omillardan biriga aylanib ulgurgan. Shunday ekan bugungi kundagi pedagogdan zamon bilan hamnafas, har jihatdan bilimdon, raqamli texnika va texnologiyaning eng so`ngi yangiliklari bilan bemalol tillasha oladigan hamda uni ta’lim jarayonida qo`llay olish kompetensiyalariga ega bo`lgan raqobatbardosh kadr bo`lish ta’lab etilmoqda.

Demak bugungi kunda OTMda tahsil olayotgan bo`lajak pedagoglar ham dars va amaliyot jarayonlarida raqamli savodxonlikning tayanch kompetensiyalarini puxta shakllantirib borishlari kerakligi, kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil bo`lib hisoblanishini ongli ravishda tushunib yetishlari hayotiy zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi “Ta’lim to’g’risida”gi O`RQ-637-son qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

3. Do‘smuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbaeva Sh.T. Yosh va pedagogik psixologiya. –T.: TDPU, 2013.

4. 4. Sayfullokh Kozimov (2024). Self-management strategies and their effectiveness. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal GIIRJ, 12(7), 43-50. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5821>

5. Sayfullokh Kozimov. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL METHODS OF SELF-DEVELOPMENT. IMRAS, 7(6), 203–210. <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1499>